

**NODIRA IJODI HAQIDA ADABIYOTSHUNOS OLIMLARNING TURLI
TAHLILYI QARASHLARI.**

*O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi
Nurutdinova Malikaxon Sharabovna
malika122yun@gmail.com*

G‘ariblik rasmini quyoshdan o‘rgan, u tongda yolg‘iz chiqib g‘am shomlarida
yolg‘iz botadi.

Nodira

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan Nodira haqidagi olimlarni fikri beriladi. Uning ijodi ko‘p olimlarni ham qiziqtirib kelgan. 1923 yili “Bilim o‘chog‘i” jurnalining 2-3 sonida Lutfullo Olim Nodiraning hayoti haqida birinchi bo‘lib qisqacha ma‘lumot berib maqola yozadi va she‘rlaridan namunalar keltiradi. Shoira ijodi haqida olim va olimalar o‘zining adabiy, tanqidiy va tahliliy qarashlari haqida maqolada so‘z boradi. Ular shoiraning ijodi haqidagi turli xil qarashlarini xalqqa xavola etib borishgan. Gazeta va jurnallar orqali fikrlarni bildirishgan. Fikr va mulohazalar beriladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz, Qo‘qon, O‘ratepa, Lutfullo Olim, Mahbuba Qodirova, O‘tkir Rashid, Nodir “Haft gulshan”, Dilshod Barnon, muhojir, tarix, taqdir.

Аннотация: В данной статье представлено мнение ученых о Надире, жившей и творившей в первой и второй половине XIX века. Его работами заинтересовались многие учёные. В 1923 году Лутфулло первым написал статью о жизни Олима Нодире во 2-3 номерах журнала «Билим Очоги» и привел примеры его стихов. В статье обсуждаются литературные, критические и аналитические взгляды поэта на ученых и ученых. Они донесли до народа свои разные мнения о творчестве поэтессы. Они выразили свое мнение через газеты и журналы. Мнения и мнения приводятся.

Ключевые слова: мумтоз, Кокан, Оратепа, Лутфулло Олим, Махбуба Кадирова, Откир Рашид, Надир «Хафт Гульшан», Дилшод Барнон, переселенец, история, судьба.

Abstract: This article presents the opinion of scientists about Nadir, who lived and worked in the first and second half of the 19th century. Many scientists became interested in his work. In 1923, Lutfullo was the first to write an article about the life of Olim Nodira in issues 2-3 of the Bilim Ochogi magazine and gave examples of his poems. The article discusses the poet's literary, critical and analytical views on scientists and scholars. They conveyed to the people their different opinions about the

poetess's work. They expressed their opinions through newspapers and magazines. Opinions and opinions are given.

Key words: mumtoz, Kokan, Oratepa, Lutfullo Olim, Mahbuba Kadirova, Otkir Rashid, Nadir "Haft Gulshan", Dilshod Barnon, migrant, history, fate.

O'zbek mumtoz adabiyotining yetuk shoirasi Nodira faoliyati va adabiy merosini o'rganishdagi tadqiqotlar, yangi-yangi ma'lumotlar shubhasiz, katta ahamiyatga egadir. Uning ijodi ko'p olimlarni ham qiziqtirib kelgan. 1923 yili "Bilim o'chog'i" jurnalining 2-3 sonida Lutfullo Olim Nodiraning hayoti haqida qisqacha ma'lumot berib maqola yozadi va she'rlaridan namunalar keltiradi. Nodirani hayoti va ijodini o'rganishda birinchi ish olib borgan Lutfullo Olim shoirani g'azallari haqida fikr bildirar ekan, shunday xulosaga keladi: "Nodira, xon xotini bo'lishiga qaramay, hamon qon yoshlar to'kuvchi, butun baxtsizlik, qayg'u, hasrat qo'rg'onlari orasida muhosara qilingo'n o'zbek xotinlarining qatoridan chiqib keta olmaydur"-deb ta'rif beradi. Haqiqatdan ham Nodira o'zini har doim xalq orasida his etgan. Ularning qayg'usiga sherik bo'lgan ayol. Maqolani kirish qismida avtor xotin-qizlarning kishilik dunyosidagi tarixiy ro'lini qayd etar ekan, Qo'qon, Samarqand va Buxoro kabi shaharlardan "tog'dek" madrasai xonimlardan shoira va olimlar chiqqanligini gapirib, Nodirani bunga misol qilib ko'rsatadi.

Aynan shu maqola haqida Mahbuba Qodirova nomzodlik dissertatsiyasida ijodiy, tanqidiy fikrlar bildiradi. "Lutfullo Olim Nodiraning biografiyasiga oid ba'zi ma'lumotlarni noto'g'ri beradi. Masalan: Komila ismi deb yozadi. Vaholanki, uning taxallusi edi. Lutfullo Olim Nodiraning g'azallarini tahlil qilayotganda uning zamonasining konkret tarixiy sharoiti bilan bog'lamasdan yuzaki tekshiradi. Bu maqola Nodiraning hayoti va ijodi bilan tanishtirishda birinchi tashabbus edi." -deb Mahbuba Qodirova shunday xulosa qiladi. Shoiraning ijodiy merosi hamisha olimlar nazaridan chetda qolmagan. Ular turli xil qarashlarini xalqqa xavola etib borishgan. Gazeta va jurnallar orqali fikrlarni bildirishgan. Jumladan, Nodiraning ijodini o'rganishda va ommalashtirishda filologiya fanlari kandidati O'tkir Rashid anchagina ish qilgan. Uning 1940 yili "Yorqin hayot" jurnalida 4 va 8-9 sonlarida bosilgan "Nodira" sarlavhali maqolasi, 1949 yil "Vatanimizning ajoyib kishilari to'g'risida suhbatlar" seriyasidagi Nodira, Uvaysiy, Mahzunalar haqidagi maqolasi, 1957 yili "Sharq yulduzi" jurnalining 4-sonida "Uch mashhur shoira" sarlavhali maqolalari diqqatga sazovordir. Bu maqola Nodiraning hayoti va ijodi haqida birmuncha ma'lumot beradi. O'tkir Rashid Nodira haqidagi ma'lumotni manbaga asoslanmasdan keltira beradi-deb Mahbuba Qodirova maqola to'g'risida o'z fikrlarini bayon etadi. "Nodiraning tug'ilgan yili 1790 desa, Umarxon 19 yoshida, 15 yashar Nodiraga 1805-yili uylangan. Keyingi maqolada Nodiraga 1808- yili 22 yoshida uylanadi"-deb ancha chalkash fikrlari to'g'risida tanqidiy yondashadi-deb aytadi. 1937-yili "O'zbek xotin-

qizlari” jurnalida Muzayana Alaviyaning “Nodira” sarlavhali maqolasi bosilib chiqqan.

1959-yili Moskvada bo‘lgan o‘zbek san’ati va adabiyoti dekadasi munosabati bilan O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti tomonidan bir qancha o‘zbek adabiyoti klassik shoirlarining asarlari nashrdan chiqqan. 1958- yili “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnalining 1-sonida Aziz Qayumovning “Nodira” nomli maqolasi bosilib chiqqan. Mahbuba Qodirova 1960-yili “Nodiraning tojik tilidagi she’rlari”, 1959-yili “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi 17 mart sonida “Nodira biografiyasining ba’zi masalalariga doir ” maqolasi nashr etilgan. “O‘zbekiston surx” gazetasining 18 mart sonida “Devoni tojiki navyofashudan Nodira” maqolasida Maknuna devoni haqida ma’lumot beradi.

Shoira Nodiraning zamondoshi Nodir “Haft gulshan” (Yetti gulshan) nomli dostoni 1240 (1824-1825) yili yozgan edi. Nodir bu kitobni mashhur o‘zbek shoirasi Mohlaroyim Nodiraga bag‘ishlagan. Shoir Nodiraning oqila, saxovatli donishmand, idrokli va irodali ayol bo‘lganligi haqida shunday deb yozadi:

Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,
Aning ko‘ngli saxovat ichra doim.
Jahon gulzorida andog‘ sifatlig‘,
Topilmas xotun ichra oqibatliq.
Amir boshi uza topib qarori,
Imoratdin yasab anda mazori.8a-g‘azali.¹

Yana:

Jamol ichra edi ul hur go‘yo,
Latofatda vujudi nur go‘yo.
Sharofatda onosi erdi nodir,
Aningdek bo‘lmag‘ay olamda zohir.
Hama boshdin ayog‘i erdi idrok,
Jahon ichra aningdek kelmagay pok.
Agar har ishni ul etsa iroda,
Karam bobida yuz erdin ziyoda.
Yig‘ibon har tarafdin necha xotun,
Borisi fazlu donish ichra otun.
Hama fahmu farosat ichra yak rang,
Hama zuhdu ibodat birla hamsang.4b- g‘azali 13-bet.

“Haft gulshan” badiiy jihatdan ancha pishiq asardir. “Dostonning tili ancha sodda, o‘qilishi ravon. Nodir bu asarni Mohlaroyim Nodiraning qayg‘uli ko‘nglini ko‘tarish

¹ Nodir. Haft Gulshan (Yetti gulshan).T.,O‘zfanakadnashr,1961. 214 bet. 18-bet.

uchun yozgan edi.”- deb ta’riflaydi A.Qayumov “Nodir va uning “Haft gulshan” dostoni haqida kitobning kirish so‘zida”.

Mahbuba Qodirovaning “Dilshod” (Hayoti va ijodi) haqidagi risolasining 58-betida Dilshod Barnoni Nodiraga nisbatan mehr-muhabbat bilan yozilgan tojik tilidagi “Nodira” radifli g‘azalidan namuna beradi:

Mohi falak, nazmi jahon Nodira,
Shohi malak mulku makon Nodira.

Osmoni ilmu adab nazm bud,
Sitorai nurfishon Nodira.

Olimi xeli shuaro Navoiy,
Ushshoqan o‘ g‘azalxon Nodira.

Oshiqi bulbulnavo Umarxon,
Andalebi shakkarfishon Nodira.

Maftuni har misrai o‘ bud Amir,
Mehru vafo dosht nihon Nodira.

Nazmiyati shoh ba o‘ quti dil,
Zi zulmatash doshta fig‘on Nodira. ²

Mazmuni:

Nodira falakning oyi, jahonning tuzumi,

Malaklar shohi, mulki makoni edi.

Ilm, adab nazm osmonida

Nur sotuvchi yulduz edi.

Navoiy shoirlar to‘dasining olimi,

G‘azalxon Nodira uning oshig‘i edi.

Umarxon bulbulnavo oshiq bo‘lsa,

Nodira shakar sochuvchi bulbul edi.

Amir uning har bir misrasiga maftun,

Nodira unga yashirin mehru vafo saqlar edi.

Shohning nazmlari uning yuragiga quvvat,

Lekin Nodira uning zulmatidan fig‘onli edi.

Dilshod o‘ziga Nodirani ustoz deb biladi. Nodira g‘azallariga ham naziralar ham yozdi.

Nodira mamlakatda yetuk shoira sifatida tanilgan bir paytda Dilshod adabiyotga,

she’riyatga kirib kelayotgan navnihol edi. Dilshod zamondosh shoiralardan ko‘p narsa

o‘rganganini tilga oladi va quyidagicha ifoda etadi:

Qo‘shiqni Nodira she’riga bog‘lab,

Bo‘laylik sozig‘a bizlar hamovoz.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida,

² 2. Qodirova M. Dilshod.(Hayoti va ijodi).T., “Fan” 1971. 58-beti.

Turaylik suhbat aylab birga damsoz. ³

Dilshod Barno Nodira, Uvaysiy, Mahzuna va Anbarotin kabi shoirlar ijodidan bahramand bo‘lganligini aytadi. Ko‘rinib turibdiki Nodira shoirlar uchun ijodiy ko‘makdosh bo‘lgan.

Nodiraning faoliyati va ijodiyoti xalqlar o‘rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarni ham mustahkamlashga xizmat qilgan. Shoiraning asarlari kitobxonlarga manzur bo‘lib, uning bir qancha g‘azallari shu kunga qadar kuyga solib aytilmoqda. Ommaning nazaridan hech qachon tushmagan. Uning ijodi har doim olimlarimiz nazarida bo‘lgan. Shoira ijodi haqida olim va olimalar o‘zining adabiy, tanqidiy va tahliliy qarashlari haqida maqolada berib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri” Mahbuba Qodirova monografiyasi Toshkent. O‘zSSR “Fan” nashriyoti 1977-yil 186 bet.
2. O‘zbekistonning ma‘rifatparvar ayollari. I-jild O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi Toshkent – 2021.32-bet
3. Nodir. Haft gulshan (Yetti gulshan).T.,O‘zfanakadnashr,1961.214 bet.(O‘z SSR Fanlar akademiyasi. A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot in-ti) Tit. v.rus va o‘zbek tillarida.766 inv raqami.
4. Qodirova M. **Dilshod**.(Hayoti va ijodi).T., “Fan” 1971. 88-bet.
5. Dilshod. “ Sabot ul-bashar” maa “Tarixi muhojiron” sah 24.

³ Dilshod. “ Sabot ul-bashar” maa “Tarixi muhojiron” sah 24.